
TOSHLOQ TUMANIDA MUDDATIDAN OLDIN TALABALIK SAFIGA QO'SHILGAN 2 NAFAR O'QUVCHILAR TAQDIRLANDI

Toshloq tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf bitiruvchilaridan 2 nafari muddati oldin talabalik safiga qo'shildi. 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi Xurshidbek Rahimberdiyev Arizona shtati davlat universitetiga muddatidan oldin qabul qilindi. U yillik 88 ming dollarlik grantni qo'lga kiritgan.

23-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi Tohirmalik Yo'lchiboyev ham 3 ta Universitetga Arizona shtati davlat universiteti, Kolorado davlat Universiteti, Sinsinnati universitetiga muddatidan oldin talabalikka sazovor bo'lgan.

Shu munosabati bilan kuni-kecha tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i A.Soliyev maktab direktorlari ishtirokida ularning ota-onalariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alarini topshirdi.

2023-04-04 09:40:20